

2025-yil, 30-noyabr, 20(66)-son



ISSN 2021-9752

Til va adabiyot.uz

ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNAL
НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL

«Til va adabiyot – Языка и литературы – Language and literature» (e-mail:tilvaadabiyotuz@gmail.com) <https://oak.uz/pages/4802>

HAR BIR DAQIQANI G'ANIMAT BILIB,
IJODKORLIK VA VATANGA MEHR BILAN YASHANG.
FARZANDLARI BILIMLI, ISTE'DODLI, O'ZINING
KUCHI VA SALOHİYATIGA ISHONIB, OLDINGA INTILIB
YASHAYDIGAN XALQ VA DAVLATNING ISTIQBOLI,
ALBATTA, YORUG' BO'LADI!

Shavkat MIRZIYOYEV,
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti



Xilola YULDASHEVA,
Dotsent, filologiya fanlari doktori (DSc)
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, O'zbekiston
hilola_75@mail.ru

SUFIYLIKDA QUTBLAR MAQOMI: CHISHTIYA TARIQATI TALQINI

Annotatsiya: ushbu maqolada tasavvuf ta'limotida qutb tushunchasining nazariy va amaliy jihatlarini tahlil qilinadi. Xususan, Chishtiya tariqatida qutblar maqomi, ularning ma'naviy-irshodiy vazifalari hamda insoni komil g'oyasi bilan uzviy bog'liq jihatlarini yoritiladi. Maqolada Chishtiya tariqati shayxlarining ma'naviy merosi, inson tarbiyasi va kamolotga erishishda qutblar o'rnining talqini tahlil etiladi. Shu bilan birga, islomiy ma'naviyatda shakllangan qutblik va avliyolik konsepsiyalarining Sharq mutafakkirlari asarlari bilan uyg'unligi ko'rsatiladi. Mazkur tadqiqot Chishtiya tariqati misolida sufiylikda qutblar maqomining mohiyati va uning ma'naviy-axloqiy ahamiyatini ochib berishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: tasavvuf, Chishtiya tariqati, qutb, insoni komil, ma'naviy tarbiya, sufiylik.

Annotation: this article analyzes the theoretical and practical aspects of the concept of the *Qutb* in Sufi teachings. Special attention is given to the Chishtiyya Order, focusing on the role of the *Qutb*, their spiritual and guiding functions, and their connection with the idea of the Perfect Man (*Insān al-Kāmil*). The article also examines the spiritual legacy of Chishti sheikhs, their approach to human education, and the interpretation of perfection in the path of spiritual growth. Furthermore, the study highlights the harmony between the concepts of sainthood and *Qutb* within Islamic spirituality and their reflection in the works of Eastern thinkers. Using the example of the Chishtiyya Order, the research aims to reveal the essence of the *Qutb* in Sufism and its moral and spiritual significance.

Keywords: *Awliya (Saints), Chishtiyya Order, Perfect Man (Insān al-Kāmil), Pole (Qutb), Spiritual Education, Sufism, Taşavvuf.*

Аннотация: в данной статье анализируются теоретические и практические аспекты понятия *кутб* в учении суфизма. Особое внимание уделяется Чиштийскому тарикату, рассматривается роль кутбов, их духовно-наставнические функции, а также их связь с идеей совершенного человека (*аль-инсан аль-камил*). В статье исследуется духовное наследие шейхов Чиштийа, их подход к воспитанию личности и достижению духовного совершенства. Кроме того, подчеркивается гармония концепций святости и кутбов в исламской духовности и их отражение в трудах восточных мыслителей. На примере Чиштийского тариката показана сущность феномена кутбов в суфизме и его нравственно-духовное значение.

Ключевые слова: *авлия, духовное воспитание, кутб, суфизм, тасаввуф, тарикат Чиштийа, совершенный человек.*

Kirish. IX asrga kelib tasavvufning nazariy asoslari ishlab chiqilib, so'fiylarning amaliy, ruhiy-psixologik mashqlari, o'z-o'zini tarbiyalash va chiniqtirishning usullari shakllanib bordi va tariqat, ma'rifat, haqiqat degan tushunchalar yuzaga kelib, tasavvufning ushbu uch qismiga oid qarashlar majmui tuzildi tasavvuf alohida ilm sifatida qaror topdi. Tasavvufning ilk davrida maqomot va tariqat asoslarini ishlab chiqish, so'fiylik yo'riqlarini, vazifalarini belgilash va ilohiy haqiqatlarni el orasiga yoyishda Zunnun Misriy (796-861), Boyazid Bistomiy (vafoti 875), Junayd Bag'dodiy (vafoti 910), Hakim Termiziy (vafoti IX asr oxiri) va Mansur Halloj (858-922) larning xizmati katta bo'ldi.

Toshkent islom universiteti qo'lyozmalar xazinasida Hidoya Abdurahim ibn Hakim ibn Chishtiy al-Usmoniyning "Siyar ul-aqtob" nomli qimmatli manba mavjud. Bu asarda bugungi kunda ilmiy adabiyotlarda zikr etilgan chishtiya tariqatiga oid ma'lumotlarni to'ldiruvchi qo'shimcha yangi ma'lumotlar borligi aniqlandi.

"Siyar ul-aqtob" asarining hozircha yagona hisoblanayotgan turkiy tildagi nusxasi Toshkent Islom universiteti qoshidagi Islomshunoslik ilmiy tadqiqot markazi "Manbalar xazinasida" da saqlanadi.

Asar hijriy 1036 (milodiy 1626) yilda Hidoya ibn Shayx Abdurahim ibn Hakim ibn Chishtiy al-Usmoniy

tomonidan fors tilida yozilgan bo'lib, so'ngra Xorazm shohi Muhammad Rahimxon II Feruz (1844–1910) ning farmoni bilan Mulla Xudoybergan Oxund Xivaqiy tomonidan turkiy tilga tarjima qilingan.

Mazkur asar tariqat qutblari haqida hikoya qilar ekan, tasavvuf ilmida qutblarning tutgan o'zni haqida to'xtalib o'tishga ehtiyoj seziladi. Zero, tasavvufga oid kitoblarni mutolaa qilgan kishi, shubhasiz, so'fiylar, valiylar, komil insonlar, aqtoqlar kabi tushunchalarga tez-tez ro'baro' keladi. Bu istilohlar biz o'rganayotgan manbada ham tez-tez uchrashini hisobga olgan holda ularning ayrimlariga izoh berish ehtiyoji bor. Bilamizki, sharqda shaxsning tarbiyasi, ilm olishi, uning komillik darajasiga yetishi muhim va yetakchi masala bo'lib kelgan. Shuning uchun islom dini o'z oldiga qo'ygan maqsadlaridan biri bu fikrlovchi, komil, kashfiyotchi va halim xulqli, sabr-toqatli insonni tarbiyalashdir.

Asosiy qism. Tasavvuf ta'limotida komil inson masalasi g'oyatda kuchlidir. Bu muammo xususida jahon madaniyati ma'rifatparvarlari, shu jumladan, Sharq mutafakkirlari ham tinimsiz bosh qotirganlar. Bu tasodif emas, albatta, komil inson insoniyatning asriy orzusi, idealidir. Shu o'rinda Sayyid Abdulkarim Jiloniy va Aziziddin Nasafiy (XIII)larning "Insoni komil" nomli risolalarini maxsus tilga olib o'tish mumkin. Aslida esa komil inson tushunchasi birinchi marta Shayxi Kabir nomi bilan mashhur bo'lgan Muhyiddin Ibn Arabiy (1165–1240) tomonidan muomalaga kiritilganini qayd etmoq joiz [Komilov N., 1996, r 145].

Tasavvufning Ibn Arabiy, Shayx Omiliy, Sayyid Abdulkarim Jiloniy kabi komil insonni hayotdan tashqari, yerdagi odamlarning xislatlariga o'xshamaydigan qandaydir mavhum zot shaklida tasavvur qilganlar. Ularning nazarida komil inson "olamlarni egallagan, olamlarga, barcha jonzotlar va insonlarga ta'sir eta oladigan, insoniyatni boshqaradigan bir Buyuk ruhdir, Ma'naviy-Aqliy qudratdir". Shu mazmunda uni Allohning xalifasi – o'rinbosari deyish mumkin [Komilov N., 1996, r 146].

Tasavvuf ahli ham, shariat ahli ham payg'ambarimiz Muhammad s.a.v.ni komil insonning yerdagi timsoli deb hisoblaganlar. Negaki, payg'ambarimiz jamiki dunyoviy va ilohiy ilmlarni har tomonlama, chuqur egallagan shaxsdirlar. Ular o'z ilmlari, sabr-u sidqlari, toat-ibodatlar va boshqa bir qator oddiy inson ega bo'la olmaydigan karomatlari orqali ruhiy yuksaklikka erishgan edilar.

Shariatulamolarining fikricha, Payg'ambaridan

boshqa barcha odamlarni, hatto valiylar va oriflarni komil inson deyish mumkin emas. Bundan farqli o'laroq, so'fiylar oriflar va avliyolarni ham komillar qatoriga qo'shadilar. Chunki ular ham ilm-u donishda, nafs va hirsni tark etishda, shariat arkonlarini bajarishda, riyozat, sabr-qanoatlik bobida maqtalgan axloqda yetuk insonlardir. Bundan ko'rinib turibdiki, tariqat ijtimoiy hodisa sifatida jamiyat taraqqiyotiga xizmat qilgan. Tariqat asosida tasavvufning yaxshi, ideal jamiyat haqidagi qarashlari vujudga kelgan. Tasavvuf bunday jamiyatga zo'rlik, inqilob yo'li bilan emas, balki har bir insonni axloqiy tarbiyalash orqali yetishish mumkin deb hisoblagan. Insonning mutlaq haqiqat, mutlaq adolat va poklikka erishish istaklari tasavvufda mujassam bo'ladi [Komilov N., 1996, r 5].

Qutblar va boshqa tasavvuf ahllari IX asrning oxirlarida Tustariy va Termiziy tariqatlarida ham qayd etilgan. XI asrga kelib barcha so'fiylar qutblarni tan oldilar. Ular yer yuzida faqat bittagina qutb bo'ladi deyishardi va uni "qutb ul-vaqt" ya'ni "zamona qutbi" yoki "sohib uz-zamon" "asr egasi" deb ham atar edilar. Shuni ham aytib o'tish joizki, shiya mazhabi vakillari ham o'z imomlarini qutblar deb atardilar [Mes A., 1973, r 144].

Qutblar haqida asosiy ma'lumotlarni biz Ibn Arabshoh va uning izdoshlari asarlarida kuzatishimiz mumkin. Ibn Arabiy ikki xil xalifalikni qayd etadi. Bular "xalifayi zohir" va "xalifayi botin" dir. "Xalifayi zohir" etnik va territorial jihatdan ma'lum vaqt ichida diniy qonun-qoidalarni boshqaradi. "Xalifayi botin" insonning yurish-turishining omillarini kuzatib boradi. Shuning bilan birga bu ikki xalifalik bir insonda o'z aksini topishi mumkin.

Ibn Arabiyning aytishicha, payg'ambarlardan Odam a.s., Dovud alayhissalom, Muhammad mustafo (s. a.v.) va xalifalardan Abu Bakr, Umar, Usmon, Ali va Alining o'g'li Hasan, Muoviya ibn Yazid, al-Mutavakkil ana shunday ikki xalifalikni o'zlarida mujassam etgan qutblarga misol bo'la oladilar [Mes A., 1973, r 144].

Ko'p hollarda xalifalar yashirin kuchga ega bo'lib, ko'pchilik ommaga ma'lum bo'lmaganlar. Odatda so'fiylar eng komil valiyni qutb deb ataganlar. Tasavvufda qutblar azaldan Allohning nazari tushgan kishilar bo'lib, ularga botiniy va zohiriy olamning ahllari tobedirlar, degan tushuncha bor. Chunki aynan qutb ularga Allohning karami va rahmatini ulashadi. Qutb ularning tanasida ruh kabi yashaydi. Qutblarga koinotdagi barcha

mavjudotlar tobe'dir. Faqatgina farishtalar bundan mustasnodirlar. Negaki, ular o'z ilmlarini Allohning huzuridan to'g'ridan to'g'ri oladilar. Farishtalarning qutblardan farqi shundaki, ular yer yuzasida xalifalik qila olmaydilar [Mes A., 1973, r 144].

“Siyar ul-aqtob” asarida muallif manoqiblari keltirilgan chishtiya tariqatining barcha shayxlarni qutb yoki aqtob deb nomlagan. Asarda jamlangan naqlarning har birida shayxlarning tariqatga kirib to qutb darajasiga yetishguniga qadar bosib o'tgan yo'llari, riyozatlari, ichki kechinmalari oydinlashtiriladi va ularda o'quvchiga imkon qadar ko'proq, mufassalroq ma'lumot berish imkoniga ega bo'lgan voqea-hodisalar hikoya qilinadi. Har bir qutbning ko'rgan tushlari va “voqea”lar haqida hikoya qiluvchi naqlarga alohida ahamiyat berilgan. Ularning aksariyati bashoratli tushlar bo'lib, kelajakda ro'yobga chiqadigan voqea-hodisalar, solik yoki shayx hayotida ro'y berishi mumkin bo'lgan o'zgarishlar haqida xabar beriladi.

Masalan, Abu Muhammad Chishtiy haqida hikoya qilinganda, u kishining tug'ilishidan oldin qilingan bashorat quyidagicha naql qilinadi:

Naqldurkim, kechakim Abu Muhammad Chishtiy tavallud topdi Ashur oyi erdi. Otasig'a shul lahzada uyqu g'alaba etib uyqug'a bordi. Hazrat Muhammad

mustafo s.a.v. ning jamoli jahon oralari jilvagar aylandi va dedilar: Ey Abu Ahmad, muborak sening uyingda farzand bo'lg'usidir. Kerakkim anga mening odim bila od qo'ysang va mening salomimni anga yetkursang. Bas, Hazrat Shayx bedor bo'ldi, ko'rdikim, o'g'ul tavallud topg'ondur” [SA. 39a].

Xulosa. Qutblarga, umuman, so'fiylarga xos xislatlar asarda turli naqlar bayonida izchil rivojlantirib borilganki, kitobxon diqqati komil inson tushunchasida mujassamlashtiriladi. Zero, komil inson tasavvuf adabiyotida ko'p marta tilga olinib, bir qator mutafakkir va mutasavvufilar o'z asarlarida umumiy tarzda komil inson xarakteri va xislatlari konsepsiyasini yaratganlar. “Siyar ul-aqtob” asari muallifi ham qutblarning ma'naviy kamolot yo'lini bosib o'tishlari, payg'ambarona xislatlar va havoriq odatlar sohibi bo'lgan komil insonning shakllanishi jarayoni va unga xos bo'lgan armoniy xislat va xususiyatlarni bayon qiladi. Ammo shuni alohida qayd etish joizki, muallif uchun qutblarning tarixiy shaxs ekanligidan ko'ra, ularning so'fiyona o'ylari, dunyoqarashlari muhimroq. Shuning uchun ularning fikr-o'ylari, amallari birinchi o'ringa qo'yiladi va bu hol har bir qutbning biografiasini yoritishda boshidan oxirigacha, ya'ni ularning tug'ilishidan vafotiga qadar bo'lgan davrni qamrab olgan naqlarda kuzatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бертельс Е. Э. Суфизм и суфийская литература. – М., 1960.
2. Комилов Н. Тасаввуф ёки комил инсон ахлоқи. К.1. – Т.: Ёзувчи, 1996. 272-б.
3. Мец А. Мусульманский ренессанс. / Пер. с. Немец., под ред., библи. Указатель Д.Б., Бертельса. Изд. 2-е. – М.: Наука 1973. 473-с.
4. Yuldasheva X. THE ROLE OF ARAB INTELLECTUALS IN THE FORMATION AND DEVELOPMENT OF NATIONAL IDENTITY //Sharqshunoslik. Востоковедение. Oriental Studies. 2024. – Т. 3. – №. 02. С. 16-26.
5. Yuldasheva, K. A. (2024). THE IMPACT OF LITERATURE ON THE SPIRITUAL ADVANCEMENT OF ARAB SOCIETY. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES, 5(01), 74–78.
6. Юлдашева, Х. А. (2024). АРАБ ЗИЁЛИЛАРИ МИЛЛИЙ ИДЕНТИКЛИК УЧУН КУРАШДА. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 4(1), 332–339.
7. Yuldasheva, X. (2024). WOMEN'S THEME IN RAJA AL SANI'S WORK. SHARQ MASH'ALI, 3(01), 264–268.
8. Yuldasheva, K. A. (2024, April). EXPLORING THE IDEAS OF IDENTITY IN ARABIC LITERATURE: THE INTERPLAY OF TRADITION AND TRANSFORMATION. In International Scientific and Current Research Conferences (pp. 137–141).
9. Yuldasheva, K. A. (2023). THE IDEOLOGICAL ROLE OF THE ARABIC LANGUAGE IN FORMING NATIONAL IDENTITY. European International Journal of Philological Sciences, 3(10), 14–18.

Ilmiy-metodik elektron jurnal

TAHRIR HAY'ATI:

Nizomiddin Mahmudov, Yorqinjon Odilov, Jabbor Eshonqulov, Baxtiyor Daniyarov, Abdurahim Nosirov, To'liq Saydaliyev, Barno Buranova, Zulxumir Mirzayeva, Qozoqboy Yo'ldoshev, Bahodir Jovliyev, Salima Jumayeva, Qayum Baymirov, Manzar Abdulxayrov, Alijon Safarov, Husniddin Norqulov, Odiljon Boynazarov, Madina Nuriddinova, Barno Kadirova, Nargiza Mirzayeva, Guli Shukurova, Yuldosh Raxmatov, Ramziddin Abdusatorov, Feruza Manukyan, Gulchexra Keldiyorova, Gulsanam Xolikulova, Svetlana Umirova, Xolmo'min Fayzullayev, Nilufar Namazova, Dilbar Niyazova, Sayyora Halimova, Shaxnoza Yunusova, Nigoraxon Ro'zibayeva, Tadjixon Sabitova, Oqila To'raqulova, Mohigul Fozilova, Maxpuza Karaxodjayeva, Dilfuza Toshniyozova, Gulboxor Ernazarova, Komiljon Qarshiyev, Uyg'unjon Turdimurodov, Diyora Yunusova, Ra'no Abdullayeva, Sharif Yarashov, Shaxnoza Xudaykulova, Mahliyo Elboyeva Sanobar Ulliyeva, Surayyo Inomjonova, Nurali Hamidov, Davronova Mahfuza, Dilafuz Jabborova, Begali Mardiyev, Normuhammad Ubaydullayev, Feruza Sharopova, Adiba Ma'diyeva, Nilufarxon Mahmudova, Munisjon Hakimov.

Bosh muharrir:

Nargiza Berdiyeva

Muharrirlar:

Bibimaryam Rahmonova,
Shabnam G'aniyeva, Bonu Do'smatova

Sahifalovchi:

Rustambek Yusupov

Tahririyat manzili:

100038, Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi 30-uy.

Telefonlar:

(93) 759-43-66, (77) 003-34-33,

(94) 095-96-22, (90) 288-32-92.

E-mail: tilvaadabiyotuz@gmail.com

Axborot hamkorimiz:

TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

ilmiy-metodik jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2023-yil 3-iyundagi 338/6-sonli qarori bilan Filologiya, Pedagogika hamda Psixologiya fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari (PhD, DSc) asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrdir.
<https://oak.uz/pages/4802>



MUNDARIJA

DOLZARB MAVZU

Nasiba SABIROVA.

**MILLIY G'OYA VA MA'NAVY QADRIYATLARNI
YOSHLAR ONGIGA SINGDIRISHDA
PEDAGOGIK YONDASHUVLAR..... 3**

Sh.Z.RAHMATULLAYEVA.

**YOSHLAR NUTQIDA INTERNET
TILINING TA'SIRI VA UNI ME'YORLASHTIRISH
MASALALARI 7**

Manzar ABDULXAYROV.

**NAVOIY ASARLARI MATNIDAGI FONETIK
XUSUSIYATLAR TAHLILI.....10**

Nargis KUDRATXODJAYEVA.

**HOZIRGI O'ZBEK BADIY ADABIYOTI VA TIL
MADANIYATIDAGI DOLZARB MUAMMOLAR VA
ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI.....12**

TILSHUNOSLIK

Nilufar MUMINOVA.

**ANTROPONIMLAR FENOMENI VA
ULARNING PRAGMATIK FUNKSIYALARI:
TEMURIYLAR DAVRI MISOLIDA16**

Umida IBRAGIMOVA.

**GRAMMATIK KATEGORIYALARNING
MORFOLOGIK TIZIMIDAGI O'RNI19**

Xasan G'AFFOROV.

**TIL VA IJTIMOY MAQOMNING ZIDDİYATLI
VAZIYATLARDAGI LINGVISTIK IFODASI VA
GENDER XUSUSIYATLARI.....21**

Odinaxon AZAMATOVA. O'ZBEK TILIDA ARTIONIMLARNING LINGVOMADANIY BELGILARI	23
Shaxlo SHOMURODOVA. KO'P MA'NOLILIK VA FIGURATIV MA'NOLARNING AMALIY LEKSIKOGRAFIYADA TALQIN QILINISHI	26
Yunus DAVIDOV. KO'PMA'NOLILIK HODISASINING SHAKLDOSHLIK HODISASIDAN FARQLI JIHLTLARI	28
Shoxsanam YIGITALIYEVA. BADIY MATNLAR ASOSIDA "YAXSHILIK" KONSEPTINI KONSEPTUAL-METAFORIK VA KONSEPTUAL METONIMIK MODELLASHTIRISH	31
Nargiza YULDASHEVA. QO'SHMA OTLARNING NOMINATSIYA TIZIMIDAGI MORFOLOGIK ASOSLARI VA MA'NO TALQINLARI	33
N.P.IMAMOV. ITERATIVLIK (HARAKAT TAKRORIYLIGI) KATEGORIYASI VA UNI IFODALASHDA TEMPORAL RAVISHLARNING GRAMMATIK-SEMANTIK O'RNI.....	37
Dilzodaxon SAYDALIYEVA. O'ZBEK VA JAHON TILSHUNOSLIGIDA SISTEM-STRUKTUR TILSHUNOSLIKNING O'RGANILISH TARIXI.....	40
Ranohon AZIMBAYEVA. XALQARO TIL TA'LIMI PARADIGMASIDA IJTIMOIY VA MADANIY KOMPETENSIYA TUSHUNCHASI.....	43
Aziza XOLBOBOYEVA. INGLIZ VA O'ZBEK REKLAMA DISKURSINING QIYOSIY LINGVISTIK MODELII	45
Kamolaxon ORIPOVA. INGLIZ VA O'ZBEK ERTAKLARIDA QO'LLANGAN ANTONIMLARNING KOGNITIV XUSUSIYATLARI	48
Madina XOLMURODOVA. INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI O'RTASIDAGI LINGVISTIK O'ZARO TA'SIRNING SINXRON VA DIAKRON TAHLILI	51
Jamila KARIMOVA. INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA O'SIMLIK NOMLI FRAZELOGIZMLARNING LEKSIK-SEMANTIK PARADIGMASI.....	53
Zebiniso BEKMURADOVA. O'ZBEK VA FRANSUZ MATNLARIDA XIAZMNING MORFO-SINTAKTIK VA MANTIQIY-SEMANTIK MODELLARI	56
Maxamadjon ARIPOV. TURK TILINI IJTIMOIY QATLAMLARGA KO'RA O'RGANISH VA UNING SOTSIOLOGIY VISTIK JIHLTLARI	58
O'g'iljon ABDOVALIYEVA. PASHTU TILIDAGI KOPULYATIV QO'SHMA SO'ZLARNI FARQLASHDA FONETIK MEZONNING AHAMIYATI	61

Amini Aziz AHMAD. AFG'ONISTON O'ZBEK SHEVALARIDA QO'LLANUVCHI FRAZELOGIK BIRLIKLARNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI	63
Nodira KHAYRULLAYEVA. IQTISODIYOTGA OID TERMINLARNING STRUKTURAVIY VA SEMANTIK TAHLILI.....	65
Надежда ШАКУРБАHOVA. СИНТАКСИС В СОЦИОЛИНГВИСТИКЕ: НЕ ПРОСТО ГРАММАТИКА, А СРЕДСТВО СОЦИАЛЬНОГО ВЫРАЖЕНИЯ	67
Елена ПОПОВА, МОДАЛЬНОСТЬ И ПЕРЕНОСНОЕ УПОТРЕБЛЕНИЕ ГЛАГОЛЬНЫХ ФОРМ ВРЕМЕНИ И НАКЛОНЕНИЯ	69
Илхом ЭРГАШЕВ. ИЗУЧЕНИЕ АСПЕКТОВ ЛЕКСИЧЕСКОЙ СЕМАНТИКИ ЯЗЫКА	74
Elena MUSAELIAN. Humoyun HOMIDOV. PRAGMATIC SHIFTS IN DIALOGUE: COMPARING TEXT AND FILM IN JONATHAN SWIFT'S GULLIVER'S TRAVELS	76
Sitora TURABOYEVA. Muxlisa ABDURAZOKOVA. THE PROBLEM OF CULTURAL EQUIVALENCE IN TRANSLATION	80

ADABIYOTSHUNOSLIK

Xilola YULDASHEVA. SUFIYLIKDA QUTBLAR MAQOMI: CHISHTIYA TARIQATI TALQINI.....	83
Mahmud RAVSHANOV. TARIXIY BADIY ASARLARIDA MEHNAT VA IJODKORLIK G'OYALARINING AHAMIYATI	86
Dilfuza PARDAYEVA. XX ASR O'ZBEK VA RUS NASRIDA AMIR TEMUR OBRAZI TALQINLARI	88
Gulnoza ABDULLAYEVA. DILSHOD RAJAB IJODIDA TABIAT TASVIRI	91
Mohigul ERGASHEVA. ADABIYOTSHUNOS BEGALI QOSIMOV HAYOTIGA NAZAR	93
Farida HAMROYEVA. HIKOYA TUZILMASINING GORIZONTAL VA VERTIKAL TAHLIL DARAJALARI: NARRATOLOGIK YONDASHUVLAR ASOSIDA	97
Munira BAHROMOVA. AYOL OBRAZINING DISKURSIV MODELLASHTIRILISHI: GENDER YONDASHUVLAR.....	100
Gulsanam MASHRAPOVA. OZARBAYJON FOLKLORSHUNOSLIGIDA BAYATI JANRINING TADQIQI MASALALARI.....	103

Sarvar ISMATOV. XX ASR FRANSUZ PROZASIDA POSTMODERNISTIK TENDENSIYALAR.....	105
Munira NIYAZOVA. SHARQ-U G'ARB SENTIMENTAL NASRINING POETIK MUSHTARAKLIGI.....	108
Elmurod JUMAYEV. TARIXIY ROMAN JANRINING YANGILANISHI	110
Nafisa HAMRAYEVA. ALISHER NAVOIY IJODIDA "SURUSH" OBRAZI TALQINLARI.....	112
Нигора КАРИМОВА. ОСНОВНЫЕ ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ РУССКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ 1950 - 1960 ГГ.....	116
Ulugbek KARIMOV. DISTINCTIVE FEATURES OF CYBORG REPRESENTATION IN GIBSON'S AND STEPHENSON'S NOVELS.....	119

ILG'OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA

X.Sh.NARXODJAYEVA. O'ZBEK TILINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA QILISH: LEKSIK, MORFOLOGIK VA SINTAKTIK RESURSLARNI AVTOMATLASHTIRISH	124
Dildora KENJAYEVA. BO'LAJAK MAKTABGACHA TA'LIM TARBIYACHILARINI TAYYORLASHDA INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH METODIKASI	127
Maxbuba AXATOVA. TILSHUNOSLIKDA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINING QO'LLANILISHI.....	129
Sanobar DJUMANOVA. SUN'IY INTELLEKTDAGALLYUTSINATSIYA MUAMMOSI	131
Sarvinoz PO'LATOVA. RAQAMLI GLOBALLASHUV: INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA INTEGRATSIYALASHUV JARAYONI.....	134
Shuhratjon QALANDAROV. GRAFIKA VA FONETIKA MODULINI O'QITISHDA MUAMMOLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI	137
N.S.NASRULLOYEVA. MEDIA MATNLARDA KOMPYUTER VA INTERNET TERMINLARINING QO'LLANISH XUSUSIYATLARI	140
Lobar IBROHIMOVA. TIL O'RGANUVCHILARINING SO'Z BOYLIGINI OSHIRISHDA O'YINLI METODLARNING AHAMIYATI.....	143
Nafosat ORAMOVA. ADABIYOT DARSLARIDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK YONDASHUVLAR VA SAMARALI METODLAR.....	145

Farida SULAYMONOVA. ATOV VA SO'Z-GAPLARNI O'QITISHGA DOIR METODIK TAVSIYALAR.....	147
Э.Н. ЕШНИЯЗОВА. И.А. САИТОВА. АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ МЕТОДИКИ ПРЕПОДАВАНИЯ ЛИТЕРАТУРЫ В СОВРЕМЕННОЙ ШКОЛЕ: ПОИСК ЭФФЕКТИВНЫХ ФОРМ РАБОТЫ С ТЕКСТОМ	150
Лайло ЭЛМУРАДОВА. МЕТОДИЧЕСКИЕ РЕКОМЕНДАЦИИ ПО РАБОТЕ НАД РАЗЛИЧНЫМИ ФОРМАМИ ПИСЬМЕННОЙ РЕЧИ	153
Jasur IRKAEV. THE LATEST METHODS FOR IMPROVING SPEAKING SKILLS AND THEIR APPLICATION IN ENGLISH LESSONS	155
Dilnavo YAZDONOVA. IMPLEMENTING OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE (AI) IN LEARNING ENGLISH LANGUAGE.....	157
Gulchehra XUDOYBERDIYEVA. THE LEARNER-CENTRED APPROACH IN ENGLISH LANGUAGE TEACHING.....	160
Malika ZAFAROVA. DEVELOPING STUDENTS' COMMUNICATIVE COMPETENCE IN LANGUAGE UNIVERSITIES THROUGH THE METHOD "SHADOWING"	163

TADQIQOTLAR

Shahnoza NIZAMOVA. TAXALLUSLARGA XOS MOTIVLAR VA ULARNING IFODALANISHI.....	167
Parda QURBONOV. JORJ GORDON BAYRONNING "SHILYON TUTQUNI" POEMASI TARJIMASI TALQINI	169
Aziza SHAYMARDANOVA. KOD ARALASHUVINING KOMMUNIKATIV FUNKSIYASI	171
Shaxnoza JUMAYEVA. TIL O'RGANISHNING LINGVISTIK TAMOYILLARI.....	174
Iroda TURAYEVA. TA'ZIYA MAROSIMLARINING ETNOGRAFIK ASOSLARI	176
Gulrux JO'RABOYEVA. TOTEMISTIK QARASHLAR BILAN BOG'LIQ ETNONIMLAR ASOSIDA YUZAGA KELGAN TOPONIMLAR TADQIQIGA DOIR.....	178
Sharipboy BOBOJONOV. "MA'QUL" LEKSEMASINING SEMANTIK VA SINTAKTIK XUSUSIYATI	180
Ikram XUDAYNAZAROV. ESSE YOZISH PRINSIPLARI VA UNING AKADEMIK YOZUVDA TUTGAN O'RNI	182